

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**TOSHXONOV LOCHINBEK TURSUNBOYEVICH**

**BADIIY DISKURSDA INKOR KATEGORIYASI  
VOQELANISHINING KOGNITIV-LINGVISTIK TADQIQI  
(INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MATERIALLARI ASOSIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in  
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Toshxonov Lochinbek Tursunboyevich**

Badiiy diskursda inkor kategoriyasi voqelanishining kognitiv-lingvistik tadqiqi  
(ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida) ..... 3

**Toshhonov Lochinbek Tursunboyevich**

Cognitive-linguistic study of the implementation of the category of negation in  
literary discourse (based on the materials of English and Uzbek languages)..... 27

**Тошхонов Лочинбек Турсунбоевич**

Когнитивно-лингвистическое исследование реализации категории отрицания  
в художественном дискурсе (на материале английского и узбекского  
языков)..... 51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works

Список опубликованных работ..... 56

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**TOSHXONOV LOCHINBEK TURSUNBOYEVICH**

**BADIIY DISKURSDA INKOR KATEGORIYASI  
VOQELANISHINING KOGNITIV-LINGVISTIK TADQIQI  
(INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MATERIALLARI ASOSIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Fil1168 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namsifl.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Qo‘ldoshev Akram Mahmudovich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abduvaliyev Muhammadjon Arabovich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Ergashev Muhammadjon Rahmonovich**  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Namangan viloyati, To‘raqo‘rg‘on shahri, Saodat ko‘chasi, 28-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz / namdhti@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: Namangan viloyati, To‘raqo‘rg‘on shahri, Saodat ko‘chasi, 28-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz / namdhti@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**N.T.Dosbayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filol.f.d. (DSc), professor

**I.I.Umrzaqov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filol.f.f.d. (PhD), dotsent

**S.A.Misirov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.n., dotsent

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida til birliklarining inson tafakkuridagi kognitiv jarayonlar orqali shakllanishi va qo'llanilishini tahlil qilish dolzarb vazifalardandir. Jahon tillarida inkor kategoriyasini ifoda etishning turli usullari mavjud bo'lib, har bir til o'zining grammatik qurilishining qonuniyatlaridan kelib chiqib, aniq tizimga ega bo'lgan ifoda vositalarining majmuini ishlab chiqqan. Hind-yevropa tillarida ko'proq leksik va sintaktik usullar orqali inkorni ifoda etish ustun tursa, turkiy tillarda morfologik usul ko'proq ustun turadi. Bundan tashqari, dunyo tillarida shaklan bo'lishli, mazmunan bo'lishsiz yoki inkor ma'noga ega bo'lgan gaplar orqali ham ushbu kategoriya o'z ifodasini topadi. Lisoniy jihatdan inkorning muhim stilistik imkoniyatlarini hisobga olgan holda shuni ta'kidlash kerakki, uning ekspressiv xususiyatlari masalasi haligacha har tomonlama ko'rib chiqilmagan va ayni paytlarda lingvistik stilistika sohasidagi mutaxassislarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Bu esa tilshunoslikda inkor kategoriyasi voqelanishining lingvokognitiv jihatlarini o'rganish zaruriyati va dolzarbligini belgilab beradi.

Dunyo tilshunosligida inkor kategoriyasi mantiq, falsafa, psixologiya, tilshunoslik kabi turli fanlar kesimida samarali o'rganilgan. Inkorning xilma-xil jihatlariga bag'ishlangan asarlarda inson tafakkuriga xos bo'lgan lingvistik inkor va uning konseptual asoslari o'zaro bog'liqligi doimo ta'kidlanadi. Inkor kategoriyasiga ta'rif berishda olimlar mantiqiy va psixologik nuqtayi nazarda turganlar. So'nggi paytlarda tildagi inkor kategoriyasi o'zining tub mohiyati va ma'no majmuasiga ko'ra mantiqiy inkordan keng va mufassalroqdir degan fikr ilgari surilmoqda. Buning natijasi o'laroq tildagi inkorni mantiqiy va psixologik inkordan farqlash uchun uning grammatik ma'no mohiyatini aniqlash zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda "ilmiy, intellektual va moliyaviy resurslarni to'liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, kelgusida fanni uzluksiz isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash"<sup>1</sup> vazifalari izchil hal etilmoqda. Bu vazifalar tilshunoslikda inkor kategoriyasining metasemiotik xususiyatlarini ingliz va o'zbek tillarida funksional yondashuv va kognitiv-diskursiv paradigma nuqtayi nazaridan ko'rib chiqishni talab etadi. Zero, tillarning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarinigina emas, balki xalq madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlarini, an'ana va qadriyatlarini asosida shakllangan milliy-mental xususiyatlarini aks ettiruvchi hodisalarni, xususan, inkor kategoriyasini lingvokognitiv aspektida tadqiq etish muhim masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida", 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги ПФ-6097-сон «Илм-фanni 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» Фармони // <https://lex.uz/ru/docs/5073449> (Murojaat sanasi: 15.01.2021)

haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy, ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Badiiy diskursda inkor kategoriyasining ifodalanishini o‘rganishning bir necha usullari mavjud.

Inkor kategoriyasining ifodalanishi, badiiy diskursning maqsad va mavzusiga bog‘liq bo‘ladi. Bu kategoriyani tushunish uchun, badiiy asarlar, she‘rlar, hikoyalar va boshqa badiiy usullar ustida tahlil va tadqiqotlar olib boriladi. Bu usullar orqali, inkor kategoriyasining ifodalanishi va uning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi.

Jahon tilshunosligida inkor kategoriyasining tadqiqi, ikkilamchi inkor, inkorning til tizimida tutgan o‘rni, mononegativ va polonegativ strukturali tillar, implitsit va eksplitsit ifodalanuvchi inkor, inkorning stilistik xususiyatlari kabi masalalarning tadqiqi yuzasidan jahon hamda yurtimiz tilshunoslari tomonidan ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan va muhim ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surilgan. Jumladan, Yevropa va AQSh tilshunolaridan C.L.Baker, W.A.Ladusaw, G.Tottie, J.R.Payne, I.Laka, L.R.Horn, W.A.Ladusaw, J.Hoeksema, J.M.Saury, S.T.Muntana; rus olimlaridan N.A.Bulax, P.A.Afanas’ev, V.N.Bondarenko, T.M.Shomaxova, Yu.V.Golovneva, V.N.Pilatova, O.A.Prokofeva, S.V.Paraxovskaya, I.V.Milyaeva, Z.S.Xabekirova, Ye.S.Kubryakova, I.A.Demidova, M.V.Basina, F.Sh.Aliguseynova, Yu.N.Petrova, Yu.N.Kondrakova, A.A.Musaeva, O.A.Stroganova, A.B.Djalilova, P.N.Islamova, Ye.V.Senko, T.G.Sikalidi, P.O.Rosyaykin; o‘zbek tilshunolaridan S.R.Rahimov<sup>2</sup>,

<sup>2</sup> Рахимов С. Вопросы структурно-типологической характеристики предложения. – Ташкент: Фан, 1978. – 118 с.; Nurmonov A. Tasdiq va inkorning paralingvistik vositalar yordamida ifodalanishi // O‘zbek tili adabiyoti. – Toshkent. Fan. 1979. №1. – В. 31-34.; Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 159 б.; Лутфуллаева Д.Э. Гапнинг семантик – синтактик қурилиш қолипи ва пропозитив структураси ўртасидаги муносабат (ўзбек тилидаги йўқлик-мавжудлик белгилари асосида зидланувчи гаплар мисолида): Филол. фан. д-ри...дисс.автореф. – Тошкент, 2006. – 47 б.; Воситов В.А. Жаҳон тилларида полинегативлик ва мононегативлик муаммоси: Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 2008. – 141 б.

A.Nurmonov, E.Qilichev, D.Lutfullayeva va V.A.Vositov kabi olimlar izlanishlar olib borgan.

Shu o'rinda tilshunos olimlardan N.A.Bulax nemis adabiy tilida inkorning ifodalanishini<sup>3</sup>, P.A.Afnas'ev so'zlashuv nutqida tasdiq va inkorning ifodalanishining o'ziga xos xususiyatlarini, D.Lutfullaeva gapning yo'qlik-mavjudlik belgilari asosida zidlanuvchi gaplar misolida semantik-sintaktik qurilishini<sup>4</sup>, S.R.Rahimov inkorni ifodalovchi elementlarni umumiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan tasniflab, inkor kategoriyasini turli sistemaga mansub tillar misolida leksik sathda<sup>5</sup>, V.A.Vositov esa inkorni umumiy nuqtai nazardan tahlil etib, o'z nomzodlik dissertatsiyasida polinegativlik va mononegativlik hodisalarning ifoda va mazmun aloqasini tipologik jihatdan tahlil qilgan<sup>6</sup>.

Tilda turli inkor vositalarining qo'llanishi: leksik, morfologik va sintaktik jihatdan ifodalanadigan nihoyatda murakkab tushunchadir.<sup>7</sup> Bu haqida S.V.Paraxovskaya muloqotda kesim va kesimli gaplarning o'rni va ularning qo'llanilishini, O.V.Stafeyeva esa til va madaniyatning munosabatlari va o'zaro ta'sirini lingvokulturologik nuqtayi nazardan o'rgangan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Zamonaviy tilshunoslik muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz va o'zbek tillari badiiy diskursida inkor kategoriyasini voqelantiruvchi birliklarni lingvokognitiv jihatdan tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

inkor kategoriyasining tilshunoslikga tutash gumanitar fanlar tizimidagi o'rni masalasini yoritish;

badiiy diskursda inkor kategoriyasining funksional-semantik va lingvokognitiv xususiyatlarini ko'rib chiqish;

ingliz va o'zbek tillarida inkor kategoriyasining stilistik jihatdan nutqda voqelanishiga va ko'chma ma'noda qo'llanilishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

ingliz va o'zbek tillarida polemik diskursda inkorning funksional-stilistik jihatlarini asoslash.

**Tadqiqot obyekt**i sifatida ingliz va o'zbek tillari badiiy diskursida qo'llanilgan inkor kategoriyasini ifodalovchi birliklar tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** o'zbek, ingliz tillari badiiy diskursida inkorni ifodalovchi birliklarning konseptual belgilari, semantikasi lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

<sup>3</sup> Булах Н.А. Средства отрицания в немецком литературном языке. Ярославл, 1962. – 90 с.

<sup>4</sup> Лутфуллаева Д.Э. Гапнинг семантик – синтактик қурилиш қолини ва пропозотив структураси ўртасидаги муносабат (ўзбек тилидаги йўқлик-мавжудлик белgilari asosida zidlanuvchi gaplar misolida): Филол. фан. д-ри...дисс.автореф. – Тошкент, 2006. – 47 б.

<sup>5</sup> Рахимов С. Ко'rsatilgan manba. - 118 с.

<sup>6</sup> Воситов В.А. Жаҳон тилларида полинегативлик ва мононегативлик муаммоси: Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 2008. – 141 б.

<sup>7</sup> Параховская С.В. Слово как объект категоризации и концептуализации (На материале междометий современного английского языка): Дисс....канд. филол. Наук. – Москва, 2003. – 196 с.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda chog'ishtirma, komponent tahlil, kontekstual tushuntirish, lug'at ta'riflarini tahlil qilish usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

ingliz va o'zbek tillari badiiy diskursida inkor kategoriyasining kognitiv jarayonning o'ziga xos belgisi bo'lib xizmat qilishi va qahramonlarning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, ichki nutqidagi o'ziga-o'zi murojaat qilishi orqali voqelikni inkor qilishi kabi lisoniy jarayonlar ochib berilgan;

ingliz va o'zbek tillarida ikki tomonlama inkor kategoriyasi badiiy asarlarda ishlatilganda predikatning mantiqiy bifurkatsiyasi (ikki xil tushunish) hodisasini yuzaga keltirishi mumkinligi asoslangan;

badiiy diskursda inkor kategoriyasi orqali asar qahramonining voqelikni inkor qilishi, ta'kidlashi, tasdiqlashi, o'zini-o'zi kashf etishi va idrok etishi jarayonini amalga oshirishda kinoya va litota stilistik vositalari eng sermahsul ekani aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillarida inkor kategoriyasining tasvirlanayotgan voqealarga afsuslanish, qoralash, g'azablanish, norozilik kabi hissiy baho berishi, shuningdek, personajning xarakter xususiyatini yoki uning intellektual qobiliyatini aniqlashga ko'maklashishi asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:**

ma'lumotlarni tahlil qilish: Inkor kategoriyasi katta miqdordagi ma'lumotlarni tahlil qilish, ulardan anglashilgan ma'noni kontekstda tushunish imkonini beradi;

savollar va javoblar: Inkor kategoriyasini qo'llash yordamida foydalanuvchilarning savollariga javob berish va ular bilan so'zlashish imkoniyatini beradi;

maslahatlar va ko'rsatmalar: Inkor vositalardan foydalanish orqali foydalanuvchilarga maslahatlar va ko'rsatmalar berish, ularning talablari va so'rovlari bo'yicha yordam beradi;

tarjima va tafsilotlash: Inkor kategoriyasini vazifalarini tushunish orqali matnlarni boshqa tillarga tarjima qilish va ularni tafsiflash imkonini beradi;

o'rganish va ta'lim: Inkor kategoriyasini qo'llash, foydalanuvchilarga o'rganish, ta'lim jarayoni, savollarga javob berish va ma'lumotlarni taxrirlashga yordam beradi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining **ilmiy** ahamiyati shundaki, badiiy diskursdagi inkor kategoriyasining kognitiv tilshunoslik, pragmatika, pragmalingvistika, va sotsiopragmatikaga doir izlanishlarda tadqiq etilayotgan masalaning keyinchalik yanada chuqurroq o'rganilishi amaliy jihatdan ahamiyatga ega bo'lib, kelgusida nutq madaniyati, ritorika, stilistika, sotsiologiyaga doir ilmiy tadqiqotlar uchun ham bevosita material bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining **amaliy** ahamiyati ishda ilgari surilgan g'oyalar, nazariy qarash va amaliy tavsiyalar darsliklar va o'quv qo'llanmalar yaratishda hamda ma'ruza matnlari tayyorlashda, to'plangan materiallar oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida, stilistika bo'yicha maxsus kurslarni ishlab chiqishda, matnni talqin qilish muammosi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Badiiy diskursda inkor kategoriyasi voqelanishining kognitiv-lingvistik tadqiqi asosida:

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Badiiy diskursda inkor kategoriyasi voqelanishining kognitiv-lingvistik tadqiqi asosida:

ingliz va o'zbek tillari badiiy diskursida inkor kategoriyasining kognitiv jarayonning o'ziga xos belgisi bo'lib xizmat qilishi va qahramonlarning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, ichki nutqidagi o'ziga-o'zi murojaat qilishi orqali voqelikni inkor qilishi kabi yangiliklardan Namangan davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasida falsafa fanlari doktori (PhD) D.M.Sarimsaqova boshchiligida AQShning O'zbekistondagi elchixonasining Alumni Outreach Grants Program dasturi doirasida 2020-2021-yillarda Namangan davlat universitetida bajarilgan S-UZ800-20-IN-0106 raqamli "Virtual Workshop on Collaborative Action Research for English Teachers" amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (Namangan davlat universitetining 2024-yil 25-oktyabrdagi 1121-04-son ma'lumotnomasi). Natijada, tadqiqotda ilgari surilgan qator taklif va tavsiyalar, ilmiy yangiliklar asosida dastur va qo'llanmalarni yaratishga, ta'lim hamda madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy ishlarni yanada samarali tashkil etishga xizmat qilgan;

ingliz va o'zbek tillarida inkor kategoriyasining tasvirlanayotgan voqealarga afsuslanish, qoralash, g'azablanish, norozilik kabi hissiy baho berishi, shuningdek, personajning xarakter xususiyatini yoki uning intellektual qobiliyatini aniqlashga ko'maklashishi kabi ilmiy yangiliklardan Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi A.Najmeddinov rahbarligida S-ECAGD-18-CA-0067 (PO20002335) raqamli "FY 2018 English Access Microscholarship Program" nomli Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim va madaniy ishlar byurosi bilan hamkorlikdagi amaliy loyihasi doirasidagi ta'limiy, madaniy sohadagi tadbirlar, amaliy ishlarda foydalanilgan (Qo'qon davlat pedagogika institutining 2024-yil 03-oktabrgi 122-son ma'lumotnomasi). Natijada, tadqiqotda ilgari surilgan qator taklif va tavsiyalar, ilmiy yangiliklar asosida dastur va qo'llanmalarni yaratishga, ta'lim hamda madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy ishlarni yanada samarali tashkil etishga xizmat qilgan;

ingliz va o'zbek tillarida ikki tomonlama inkor kategoriyasi badiiy asarlarda ishlatilganda predikatning mantiqiy bifurkatsiyasi (ikki xil tushunish) hodisasini yuzaga keltirishi mumkinligi hamda badiiy diskursda inkor kategoriyasi orqali asar qahramonining voqelikni inkor qilishi, ta'kidlashi, tasdiqlashi, o'zini-o'zi kashf etishi va idrok etishi jarayonini amalga oshirishda kinoya va litota stilistik vositalari eng sermahsul ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DM "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyati tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot",

“Adabiy jarayon”, “Jahon adabiyoti” radioeshittirishlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 26-sentabrdagi 04-36-1062-son ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu teleko‘rsatuvlar ilmiy va amaliy jihatdan boyigan, ijtimoiy xususiyatlari ortgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalaridan foydalanilgan holatda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli buyrug‘iga asosan “Yuristlar uchun xorijiy til (ingliz tili)” (guvohnoma №68-256 sonli) va “Iqtisodchilar uchun xorijiy til (ingliz tili)” (guvohnoma № 68-576 sonli) nomli darsliklari yaratilishida unumli foydalanildi, hamda olib borilgan tadqiqotning asosiy mazmuni va natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 4 ta xalqaro va 4 ta respublika va hududiy ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, shundan 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning umumiy hajmi 162 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiyaning dolzarbligi, zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti bayon qilingan. Respublika fan va texnologiyalar komitetining ustivor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rsatilgan, shuningdek, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ishonchliligi bayon qilingan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob **“Tilshunoslikda inkor kategoriyasini o‘rganilishining nazariy asoslari”** mavzusida bo‘lib, to‘rt fasldan iborat.

Bobning birinchi fasli *“Inkor kategoriyasi umumiy tilshunoslik predmeti sifatida”* deb nomlanadi va u tilshunoslikdagi kategoriya mantiq, falsafa va psixologiyadagi muammolarni qamrab olgan. Inkorni mantiqiy va psixologik inkordan farqlash uchun tilshunoslar inkorning grammatik ma’no mohiyatini aniqlashga o‘z e’tiborini qaratganlar.<sup>8</sup> I.Brodskiyning (1940-1996) she’r, pyesa va publitsistik to‘plamlarida yolg‘izlangan kishi bilan bir kam dunyo o‘rtasidagi ziddiyatlar kinoyaviy ko‘tarinki uslubda aks ettirilgan.<sup>9</sup>

A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidan keltirilgan quyidagi parchada *“- Sizmi? - deb kulimsiradi. - Otam bo‘lmasangiz ham meni otalik muxabbati bilan suygan sodiq va mehribon bir kishimsiz - ya’ni ma’naviy otam”* inkor voqelikni

<sup>8</sup> Воситов В.А. Жаҳон тилларида полинегативлик ва мононегативлик муаммоси. Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 14.

<sup>9</sup> <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/rus-sheriyati/iosif-brodskiy/>

ta'kidlash va tasdiqlash ma'nosida, lisoniy jihatdan inkorning ma'no doirasi: ta'jublanish, yo'qlik, mavjud bo'lmaslik, mahrumlik, mos kelmaslik, rad etish, kelishmovchilik, e'tiroz, ta'qiqlash ma'nolari keltirib o'tilgan.

Tilning nutq orqali mavjudligi va rivojlanishi, unga insonning ta'siri "Tilshunoslik terminlari lug'ati"da keltirilishicha inkor, leksik, frazeologik, sintaktik jihatdan gapning elementlari o'rtasidagi bog'lanishning haqiqatda mavjud emasligini bildiradi".<sup>10</sup> Yani, inkor til birliklari: leksemalar, morfemalar orqali ifodalanadi.

Ingliz tilida inkorni *no, no one, none, nothing, nobody, neither* olmoshlari, *never, nowhere* ravishlari, *not* inkor so'zi, *a-, dis-, in-, il-, im-, ir-, non-, un-* prefikslari va *-less* inkor suffiksi orqali ifodalanadi: *amoral, dishonest, injustice, illiterate, impolite, irrelevant, non-scientific, unlucky, useless*.

O'zbek ilida esa inkor kategoriyasi *-ma, -siz, -may, -mas* suffikslari, *no-, be-, bad-, ne-, bil-, bo-, g'ayri-* prefikslari, *-sa ham, yo... yo, na... na* bog'lovchilari, *lekin, ammo, biroq* kabi inkor bog'lovchilari, *emas, yo 'k, inkor, e'tiroz* kabi inkorni ifodalovchi so'zlar, *kam* ravishi va *hech* inkor olmoshi bilan ifodalanadi. Masalan. *bo'lmas, bo'lmasliqni, noqulay, noma'lum, beozor, "bir-biravingizdan kamligingiz yo'q"...*, *"Haqqingiz bormi dedi, - dedi Otabek, -ammo birinchilardan"...*, *Uylanganmisiz? – Yo'q.* (A.Qodiriy. O'tkan kunlar. – B. 44)

Lingvistik inkor, birinchi navbatda, salbiy so'zlar (inkor olmoshlari, ravishlari va yuklamalaridan)dan iborat bo'lib, inkor og'zaki predikatsiyaning bir qismi sifatida (not va n't kabi to'liq yoki qisqa inkor shakllar bilan ifodalanadi), shuningdek, morfemik strukturaga ega leksik birliklar tarkibiga inkor affikslari ham kiradi. Ma'lumki, *absent, fail, lack* shakl jihatdan ijobiy bo'lishiga qaramay inkor ma'noni bildiradi. Huddi shunday leksik birliklar o'zbek tilida ham mavjud bo'lib, *ammo, e'tiroz, goh, kam* so'zlari orqali ifodalanadi.

Inkorning grammatik tuzilishi haqida V.V.Vinogradov, til va tafakkur munosabati, tilning obyektiv mavjudligi, til birliklarida leksik va grammatik elementlari, til va nutq munosabati kabi masalalarni A.I.Smirnitskiy, leksikologiya, frazeologiya, psixolingvistika, sotsiolingvistik tomonlarini O.S.Axmanova, fe'lning grammatik semantikasiga (aspekt va zamon), morfologik kategoriyalarini A.V.Bondarko, fe'l zamonlar tizimi, mayl shakllarining ma'nosi va nisbat kategoriyasini morfologik jihatdan D.A.Shteling ishlar olib borgan.

A.I.Smirnitskiy so'roq gaplarda inkor tasdiqlovchi va so'roq shakllarini ifodalashi mumkin deb ta'kidlaydi:<sup>11</sup> *(I) don't know - Don't (I) know?*

*Nobody* olmoshi turkumlash orqali otga aylanishi (affiksiz transpozitsiya) natijasida so'zda stilistik ma'no paydo qiladi, asl birlik esa "betaraflik va umumiy qo'llanish" bilan tavsiflanadi.<sup>12</sup>

Birinchi bobning ikkinchi fasli "*Inkor kategoriyasining semantik mohiyati*" deb nomlanadi. Faslda ingliz tilidagi *no, no one, none, nothing, nobody, neither,*

<sup>10</sup> Ахманова О С Словарь лингвистических терминов. Изд 3-е, стереотипное. – М., Комкнига, 2005. – С. 302-303.

<sup>11</sup> Смирницкий А.И. Морфология английского языка. - М.: Изд-во лит-ры на иностр. яз., 1959. – С. 89-91.

<sup>12</sup> Уланова С.Б. Грамматическая семантика как объект грамматической стилистики (формо- и словообразование в современном английском языке): Автореф. дисс....канд.филол.наук. – М., 2006. – 28 с.

*nowhere, never* so‘zlari va o‘zbek tilidagi *yo‘q, hech, emas, yo‘q, -sa ham, yo... yo, kam, lekin, na... na, inkor, bad, g‘ayri, e‘tiroz* so‘zlari, olmosh va ravishlari shaxs, predmet va o‘rin-joyning mavjud emasligini ifodalashi, ularning semantikasi va etimologiyasi tahlil qilinadi. Inkor vositalar evolyutsiyasi qadimgi va o‘rta ingliz tili davriga borib taqalib, “nothing” dan “na-wiht” (no thing) va “nan” (no one) kabi shakllangan.<sup>13</sup>

Ingliz tilida *no one, none, no, not, nowhere, never, nonetheless, neither, nobody, nay* (archaic dialect of no), *nought, nonentity, nonesuch, nevermore, nevertheless, nonevent* kabi olmoshlar ham inkor vositalar sanaladi. O‘zbek tilida *yo‘q, hech, emas, yo‘q, - yo... yo, kam, na... na* so‘zlari va yuklamalar semantik jihatdan inkor manosini ifodalaydi. *Nobody* olmoshi turlanganda stilistik jihatdan “betaraflik va umumiy qo‘llanish” bilan tavsiflanadi.<sup>14</sup> Shunday vazifa *g‘ayri-* prefiksida ham mavjud. Etimologik jihatdan bu so‘z arab tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan (*g‘ayridin, g‘ayriqonuniy* kabi). A.N.Kononov “g‘ayri-”ni qo‘shma sifatning komponenti deb qaraydi.<sup>15</sup> A.N.Xolmurodov bu qo‘shimchani prefiks deb ataydi<sup>16</sup>. *G‘ayri-* qo‘shimchasining ma‘nosi haqida A.N.Kononov, Maqsuda Sodiqova va A.N.Xolmurodovlar tomonidan u “zid”, “qarama-qarshi”, “emas” degan ma‘nolarni ifodalashi aytilgan.

So‘zlarning bir turkumidan ikkinchi turkumga o‘tishi natijasida *anybody* so‘zi gumon ma‘no kasb etadi. (*You wouldn‘t know him. He’s a nobody, but I fell in love with him*) gaplarida inkor hissiy ifodani aks ettiradi. Masalan: *U hayotidan nafratlanmagan. He hated his life, he was a poor nobody. I’m tired of everyone treating me like a nobody!*

O‘zbek tilshunosligida suffikslar *-ma,- siz, -may, -mas*; prefikslar *no-, be-, bad-, ne-, bil-, bo-, g‘ayri-*; *ammo, lekin, biroq, yo‘q, emas, kam, inkor, hech* kabi inkor so‘z va bog‘lovchilar *-sa ham, yo... yo, na... na* shakllari nutqda qo‘llanilib voqeilikka nisbatan salbiy, yo‘qlik, voqiflik, gumon ma‘nolarni ifodalaydi.

Morfologik va sintaktik jihatdan bir turkumidan boshqasiga o‘zgarishi, otdan sifat yasovchi *-siz* suffiksi (*ko‘rimsiz, vaqtsiz*), shakl yasovchi *-ma, -siz, -may, -mas* suffikslari (*kutmagan, bilmadim*), otdan sifat yasovchi *no-, bad-, ne-, bo-, bil-, g‘ayri-, be-* prefikslari (*noqulay, badbaxtlikdir, g‘ayriinsoniy, bedarmon*) nutqda inkor ma‘noga so‘zlar sifatida qaraladi.

Ingliz tilidagi “non-” prefiksi yuridik terminologiyada keng qo‘llanilib *non-age, non-payment, non-suit* kabi so‘zlarini yasaydi. No- prefiksi harakatni bildiruvchi otlar (action-nouns) va ish-harakat bajaruvchini otlar (agent-nouns) bilan qo‘llaniladi: *non-combatant, non-belligerent, non-conductor*. Ushbu inkor prefikslar un- va in- prefikslarni ishlatib bo‘lmaganda qo‘llanib tilni zarur farqlash bilan ta‘minlaydi. Antonim so‘zlar ijobiy yoki kamsituvchi, etiborga loyiq bo‘lmagan ma‘nolarda, non- prefiksi (neytral) antonimlarni (*non-scientific* va *unscientific, noneffective* va *ineffective, non-human* va *inhuman, non-moral* va

<sup>13</sup> Смирницкий А.И. Хрестоматия по истории английского языка с VII по XVII в.-М., 1998. – С. 208-277.

<sup>14</sup> Уланова С.Б. Грамматическая семантика как объект грамматической стилистики (формо- и словообразование в современном английском языке): Автореф. дисс....канд.филол.наук. – М., 2006. – 28 с.

<sup>15</sup> Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.-Л. 1960. – 152 с.

<sup>16</sup> Холмуродов А.Н. Креализованные и некреализованные подсистемы современного узбекского словообразования. – Ташкент, 1989. – С. 47-48.

*immoral, non-natural* va *unnatural, non-professional* va *unprofessional*) hosil qiladi.<sup>17</sup>

Keng tarqalgan inkor prefikslar un- va in- bo‘lib, mi- prefiksi ingliz tilining asl shakli, in- esa lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib, u ko‘plab fransuz va lotin tilidan o‘zlashgan so‘zlarda uchraydi. (ig- ignoble, il- illiterate, im- impossible, ir- (impossible)) Un- qisqaroq so‘zlardan oldin va in- prefiksi *unable - inability, unjust - injustice, unequal – inequality* so‘zlarida kitobiy uslubda ko‘p qo‘llaniladi.

Birinchi bobning uchinchi fasli “*Inkorning lingvostilistik xususiyati*” haqida bo‘lib, inkorning stilistik-semantik tomoni o‘rganilgan. Inkorning lingvostilistik xususiyatlari tilshunoslikda inkorni ifodalashda qo‘llaniladigan lingvistik va stilistik vositalarni o‘z ichiga oladi. Shu o‘rinda inkor gaplar faqat lingvistik va stilistik vosita emas, balki kuchli pragmatik ta‘sir kuchiga ega nutqiy aktdir. U rad etish, kinoya, hissiy ma‘no va hatto muloyimlikni ifodalash uchun xizmat qilishi mumkin. Tillarda shaklan tasdiq, mazmunan inkorga ega bo‘lgan gaplar orqali ushbu kategoriya o‘z ifodasini topishi ko‘proq kinoya (ironiya)ga asoslanadi.

Hind-yevropa tillarida leksik va sintaktik usullar orqali inkorni ifoda etish ustun tursa, turkiy tillarda morfologik usul ustun turadi. Dunyo tillarida shaklan bo‘lishli, mazmunan bo‘lishsiz yoki inkor ma‘noga ega bo‘lgan gaplar orqali ham ushbu kategoriya ifodalanadi. Bunda ko‘proq kinoya (ironiya) ga asoslangan ma‘no ko‘chish holati kuzatiladi.<sup>18</sup>

Masalan: O‘zbekcha: *Qanday aqllisiz-a!...* (kesatish ma‘nosida); *Sizga havasim kelyapti, koshkiydi men ham borsam!..* (Ibrohim Rahim, 4).

Inglizcha: *How clever you are to understand this matter!...; Much you know what is harmless!... and what isn't.*

Kinoyadan tashqari inkor ma‘no ritorik so‘roq gaplar orqali ham ifodalanishi mumkin: *Xotin kishiga ona bo‘lishdan kattaroq baxt bormi?*

*It is good* va *It is not bad. He is a brave man* va *He is no coward.* Bunda litota mazmunni qarama-qarshi so‘zlar orqali kichraytirish, diologik nutqni yumshatish orqali nozikroq taassurot qoldirish vazifasini bajaradi. I.R.Galperin ifodalashning ushbu sinonimik vositalarini *no* yoki *not* bilan tushunarli bo‘lishi uchun atayin kamaytirma sifatida qaralishi ta‘kidlanadi.<sup>19</sup>

Litotani ingliz nutq odob-axloqida inglizcha o‘zini tutish, emotsionallikdan qochish, xotirjamlikni saqlashni ifodalaydi.<sup>20</sup>

O‘zbek tilida quyidagi parchada vaziyat litota orqali inkor ma‘noni kamaytirish maqsadida *uncha* va *unchalik* so‘zlari qo‘llanilgan: - *Iltifotingiz uchun rahmat, qushbegi, - dedi. - Men endi dunyodan o‘tayozg‘an bir kishi; endigi mansablarg‘a uncha qiziqqa olmayman. Agar manim qilg‘an xizmatim shunday*

<sup>17</sup> "Non-American is a neutral descriptive term, whereas un-American denotes behaviour that is judged not to conform to assumed American norms, non-scientific is neutral ('not connected with science') and unscientific is evaluative ('not conforming to scientific standards of investigation'). Qarang: Greenbaum S. The Oxford English grammar. Oxford University Press, New York, 1996. – P. 446.

<sup>18</sup> Воситов В.А. Жаҳон тилларида полинегативлик ва мононегативлик муаммоси. Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 82.

<sup>19</sup> Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. - М.: Изд-во лит-ры на иностранных языках, 1958. – С. 218;

<sup>20</sup> Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык: Учебник для вузов. - 7-е изд. - М.: Флинта: Наука, 2005. – С. 236.

*iltifotlarga loyiq ko'riladigan bo'lsa, xon janobidan so'raydirgan bir necha tilaklarim bor.* (A.Qodiriy. O'tkan kunlar. – B. 105)

Inkor bo'lishsizlikka qaraganda ko'proq emotsional-ekspressivlikni ifodalab, poetik asarlarda uning ko'p ishlatilishi umidsizlik hissini uyg'otadi.<sup>21</sup> Quyidagi misralarda inkor nimaningdir yo'qligi yoki nimadandir judolikni anglatadi:

*A shadow of man's ravage, save his own, When, for a moment, like a drop of rain, He sinks into thy depths with bubbling groan, Without a grave, unknelled, uncoffined, and unknown.* (Byron).

Birinchi bobning to'rtinchi fasli "*Ingliz va o'zbek tilshunosligida birlamchi va ikkilamchi inkor muammosi*" deb nomlanib, inkorning qo'llanilishi va evolyutsiyasini o'rganadi. O'zbek tilida ikkilamchi inkorning tasdiq yoki inkor ma'nosini yaratishidagi murakkablik asosan kontekst, grammatik tizim va mantiqiy talqinga bog'liq. Ushbu muammoni yechish uchun lingvistik tahlil va qoidalarga asoslangan yondashuv zarur. Adabiy va stilistik foydalanishda aniqlik va izchillikni saqlash pragmatik muammolarni bartaraf etishda muhimdir. Misol uchun: 1. *Lingvistik misollar orqali ifodalanishi:*

Tasdiqqa yo'naltiruvchi ikkilamchi inkor: "Men hech qachon yolg'on gapirmasdim" → Tasdiq ma'nosi: men har doim rost gapirganman. "Bu yomon emas" → Ma'no: bu yaxshi.

Inkor holatini saqlovchi ikkilamchi inkor: "U hech narsani hech qachon unutmaydi" → Inkor ma'nosi: u har doim unutadi. "U bu ishni qilmaslik kerak emas deb o'ylaydi" → Hali ham inkor: bu ishni qilmaslik muhim.

## 2. *Badiiy asarlarda ikkilamchi inkorning pragmatik holatlari:*

A.Qodiriy va A.Cho'lpon asarlarida inkor ikki xil vazifani bajaradi:

Tasdiqni kuchaytirish (tasdiq bilan qarama-qarshi bo'lgan holatlarda).

Inkor holatini saqlash (hissiy ta'sirni oshirish uchun):

Masalan: "Ko'kcha qo'rg'onlari yo'q ham emas edi". Bu iborada yo'qlik to'liq rad etilmaydi, noaniqlik va hissiy ma'no saqlanadi.

Qadimgi va o'rta ingliz tilida nutqda qo'sh inkordan foydalanish odat sifatida qabul qilingan. D.Kristalning "When two wrongs make a wrong" asarida, u adabiy ingliz tilida so'zlashuvchi mantiq va matematika fanlari ma'ruzachilarini qoidalarga doimo amal qilishga intilishini tanqid qiladi. Ingliz tilidagi ikkilamchi inkor masalasida o'z pozitsiyasini aniqlashtirish uchun muallif lisoniy birliklardan foydalanishni taklif qiladi.<sup>22</sup> Adabiy tilga matematika va mantiqning ta'siri asta-sekin ikki tomonlama negativlarni ta'qiqlaydi. "*I ain't got no money*" gapi (ain't so'zi "is not", "are not", yoki "have not" shakllarining qisqartirilgan amerikancha jargon shakli) har doim to'g'ri talqin qilinmaydi, chunki ikkilamchi inkor vositasida mantiqqa zid narsa yo'qdir. D.Kristal inkor vositasidan noto'g'ri foydalanish mantiqning yo'qligi uchun emas, balki ijtimoiy nomaqbulligi uchun deb ta'kidlaydi va agar kimdir adabiy tilda gaplashmoqchi bo'lsa, ikkilamchi inkor vositalaridan qochishi kerakligini uqtiradi.<sup>23</sup>

<sup>21</sup> Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – Ленинград: Просвещение, 1973. – С. 214.

<sup>22</sup> Crystal D. When two wrongs make a wrong // Хрестоматия по английской филологии / Сост. О.В. Александрова. – М. 1991. – P. 176.

<sup>23</sup> Crystal D. Ko'rsatilgan manba. – P. 177.; Kahrel P. Aspects of Negation. Amsterdam, The Netherlands: University of Amsterdam dissertation.1996. – Pp. 8-9.

Zamonaviy ingliz tilida inkor vositalari takrorlanishi kam tarqalgan. O.Jespersenning fikricha, fonetik jihatdan urg‘usiz *ne* va *en* bu tillardagi to‘liqroq *no* va *nicht* bilan almashtirilganligidan iborat bo‘lib, bunga lotin tilining ta’siri katta bo‘lgan. “Grammatika falsafasi” asari muallifining fikricha, bu turdagi inkorning Yelizaveta davrida nisbatan kam qo‘llanilishini o‘sha paytda to‘liq not qo‘llanilganligi, lekin *do+n’t* shaklda qisqartirilmaganligi bilan izohlaydi.<sup>24</sup>

Quyidagi o‘zbek tilidagi parchada ham gap tarkibida inkorni ifodalovchi vositalarning qo‘llanilishi natijasida ma’noning teskari tomonga o‘zgarishi ko‘rinadi: - *Ko‘kcha qo‘rg‘onlari qo‘rug‘ida anovi qo‘rg‘onlarnikidek mudofi‘lar ko‘p bo‘lmasa ham, yo‘q ham emas edilar.* (A.Qodiriy. O‘tkan kunlar. – B. 81); - *Soliq bermangiz demayman, chunki sizning itoatingiz menga bundog‘ to‘nlar berar! –dedi.* (A.Qodiriy. O‘tkan kunlar. – B. 82)

Ingliz tilining barcha dialektlarida so‘zlashuvchilar, afro-amerikaliklar bundan mustasno, bu jumlaning “*There isn't any cat that can't get into any coop*” deb talqin qilishadi, lekin aslida bu bayonot quyidagi ma’noga ega edi: “*There isn't any cat that can get into any coop*”.<sup>25</sup> Bunda inkor gumon olmoshi *any* va ravish *ever* kabilar bilan ifodalanadi.

Qo‘shma gapda inkor *but* orqali bog‘langan ikkita parallel gapda tasdiq modal *would* orqali kuchaytiriladi. Inkori shaklni ko‘proq yordamchi yoki modal fe‘l va infinitiv bilan kelish shakli uchraydi. Bunda birinchi jumlada ma’no inkor bo‘lib qoladi: 1. *I don't not eat bread because I'm afraid of getting fat...* (S. Maugham). 2. *We cannot not notice that it is inevitably part of listening to the work for us.* (Jan Robinson. The Survival of English). 3. *Yet said Sally, when I heard Clarissa was giving a party, I felt I couldn't not come - must see her again.* (V. Woolf. Mrs. Dalloway).

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Ingliz va o‘zbek tillarida inkor kategoriyasini o‘rganishda kognitiv-lingvistik yondashuvlar**” mavzusida bo‘lib, bob to‘rt fasldan iborat. Bobning birinchi fasli “*Inkor kategoriyasining kognitiv belgilarini ko‘rib chiqish tendensiyalari*” deb nomlanadi. Bunda ingliz va o‘zbek tillaridagi inkorning kognitiv xususiyatlari va “dunyoning konseptual tasviri - dunyoning lingvistik aksi” muammosiga qaratilgan. Shu o‘rinda “kognitivlik” va “psixologik” tushunchalari mushtarak va farq qiluvchi tomonlari mavjuddir:

✓ Kognitivlik insonning bilish jarayonlarini, masalan, fikrlash, idrok, va eslashni tushunishga qaratilgan.

✓ Psixologiya esa insonning hissiyoti, motivatsiyasi va xulq-atvoriga diqqat qaratadi.

Ular o‘zaro bog‘liq bo‘lib, kognitiv jarayonlar psixologik holatlarni shakllantiradi, psixologik jarayonlar esa kognitiv faoliyatga ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, har ikki tushuncha inson ongining murakkabligini o‘rganishda birbirini to‘ldiradi.

Bu faslda kognitivlik va psixologik tushunchalarning farqlari va o‘xshashliklari keltiriladi. Insonning bilish jarayonlarini o‘rganishdagi o‘xshash

<sup>24</sup> Jespersen O. Negation in English and other languages. In: Selected papers of Otto Jespersen. London: George Allen & Unwin Ltd. 1960. – P. 383-386.

<sup>25</sup> Labov W. Sociolinguistic patterns. Philadelphia Univ. of Pennsylvania press, 1972. – 234 p.

tomonlari: 1. Kognitivlik ong'dagi bilish jarayonlarini o'rganadi, ya'ni qanday qilib inson ma'lumotlarni qabul qiladi, qayta ishlaydi, xotirada saqlaydi yani kognitiv fanlar ko'proq insonning bilim olish jarayonlari bilan bog'liq. 2. Psixologik tushunchalar insonning idrok qilish, o'rganish va tushunish jarayonlari bilan shug'ullanadi, lekin ko'proq psixologiya ong, hissiyotlar va bilish jarayonlarini tahlil qiladi. Umumiy o'xshashlik tomoni shundaki har ikkala yo'nalish ham insonning bilish (kognitiv) faoliyatini, ya'ni idrok qilish, tushunish, qaror qabul qilish kabi jarayonlarni o'rganadi.

Ularning maqsad va tadqiqot sohasiga ko'ra farqli tomonlari: 1. Kognitivlik insonning ongida qanday qilib bilimlar hosil bo'lishini, o'zlashtirilishini va ishlatilishini tushunishdir. Kognitivlikda diqqat ko'proq bilish jarayonlariga va ularning mexanizmlariga qaratiladi; 2. Psixologiya kengroq soha bo'lib, insonning hissiyotlari, motivatsiyasi, psixikasi va xulq-atvorini ham o'rganadi. Bu yerda bilish jarayonlari, balki emotsional va ijtimoiy omillar ham hisobga olinadi. Ya'ni asosiy farq: kognitivlik faqat bilish jarayonlariga qaratilgan bo'lsa, psixologiya inson xulq-atvori, hissiyotlari va ijtimoiy munosabatlarni ham qamrab oladi.

Psixolingvistika ikki fan - tilshunoslik va psixologiya tutashgan joyda vujudga kelgan, uning predmeti til va nutqning psixologik tomonlarini: nutqni yaratish va idrok etish, tilni tushunish va tilni o'zlashtirishni o'rganishdir. Nutqni hosil qilish va tushunish jarayonlarida semantika va nutqni o'rganish, til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik psixolingvistika fanining muhim jihatlari hisoblanadi.<sup>26</sup> L.Xorn bolaning ona tilini o'zlashtirishiga ma'lum darajada bog'liq bo'lgan inkor qilish psixologiyasi haqida ma'lumot beradi<sup>27</sup>. U bolalar 18-24 oylikdan boshlab inkor qilishni odatiy rad etish ifodasi sifatida inkorni birinchi navbatda og'zaki nutqda qo'llay boshlashini ta'kidlaydi. Shunday munosabat kattalar nutqida quyidagi misollarda ko'rsatilgan: a. *There's no beer in the fridge*; b. *There's no halvah in the fridge*; c. *There's no corpse in the fridge*. L.Xorn ta'kidlashicha "a" jumla "b" jumlagacha qaraganda tabiiyroq ko'rinadi, "c" esa mutlaqo g'ayritabiiy ko'rinadi.

Pragmatika va sotsiolingvistikaning barcha yuanslariga (nozik farq, sezilar-sezilmas farq) qaramay, leksik ma'no so'z yordamida yoki sintaktik tarzda yasaladi. Bunda bir xil fikrini ifodalashning uchta usuli taklif qilinadi: a) *It's nothing*; b) *It's trivial*; d) *It's unimportant*. Inkor qilishning kognitiv xususiyatlarini haqida «Negation, text worlds, and discourse: the pragmatics of fiction»<sup>28</sup> asarida hodisaning semantik, kognitiv va pragmatik xususiyatlari keltirilgan bo'lib, unda inkorning nutqda (diskurs)gi rolini tushunish imkonini bergan. J.Xelleraning "22-punkt" ("Catch-22") romanida nutqda inkorning kognitiv xossalari mavjud va "oldingi planda" ("foreground") asar matnida urush, o'lim, din haqidagi qabul qilingan tasavvurlar aks ettirilgan.<sup>29</sup>

<sup>26</sup> Современная американская лингвистика: фундаментальные направления. Editor, Andrej A. Kibrik. Edition, 2. Publisher, Едиториал УРСС, 2002. – С. 231, 256.

<sup>27</sup> Horn L.R. A natural history of negation. - Chicago; London: The Univ. of Chicago press, 2001. – P. 168.

<sup>28</sup> Dunyoning lingvistik tasviriga qarama-qarshi bo'lgan tushunchalar. Qarang: Hidalgo Downing L. Negation, text worlds, and discourse: the pragmatics of fiction, (in the series "Advances in discourse processes"; vol. 60 Ablex Publishing Corporation. Stamford, Connecticut. 2000. – P. 38.

<sup>29</sup> Heller J. Catch-22. – New York: Simona & Schuster, 1961. – 443 p.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “*Inkorning olam lisoniy manzarasida tutgan o‘rni*” haqida bo‘lib, dunyoni lingvistik jihatdan tasvirlashda inkorning rolini o‘rganib, dunyoning kontseptual ko‘rinishining diniy, mifologik, falsafiy, ilmiy, lingvistik va badiiy nuqtayi nazardan ta‘sirini inson idroki bilan qanday bog‘liqligi o‘rganiladi. S.G.Ter-Minasovanning “Til va madaniyatlararo muloqot” asarida dunyoning madaniy (konseptual) manzarasi “shaxsning g‘oyalari asosida shakllanadi deb ta‘riflanadi.”<sup>30</sup>

Til orqali dunyoni tasvirlashda inkor — muayyan bir fikr yoki hodisani rad etish, mavjud emasligini ifodalash vositasi sifatida ishlatiladi. Til va tafakkur bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgani uchun, inkor ham turli tillarda va madaniyatlarda dunyoni qanday tushunishimizga ta‘sir ko‘rsatadi. Inkorning lisoniy tasviri o‘z ichiga quyidagilarni oladi. 1. Dunyoni tasvirlash usuli. Masalan, “Inson bolasi go‘yo bu yorug‘ dunyoga faqat azob chekish uchun yaralgan kabi edi... Uning borligi doimiy bir iztirobga aylanib qolgan, na dam olish, na tinchlik bor edi”. (Kecha va kunduz. A.Cho‘lpon) Bunda inkor – dunyoning ijtimoiy va madaniy jihatdagi inqirozini ko‘rsatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bunda Cho‘lpon millatning iztirobini, uning erksizlik va zulmat ichida qolganligini chuqur iztirob bilan ifodalaydi. 2. Madaniy farqlari: Inkor turli tillarda turlicha shakllarda ko‘rinadi. Ba‘zi tillarda qo‘sh inkor tushunchasi mavjud bo‘lib, bitta rad etish bilan bir nechta elementlarni inkor qilish mumkin. Masalan, “*Sharqcha kiyingan ayolning hayoti o‘tmishning qorong‘u sahifalari kabi ko‘rinardi, go‘yo zamonning o‘zgarishlaridan yiroqda edi, ammo yangi kun o‘ziga xos qiyinchiliklar bilan kelardi.*” (Kecha va kunduz. A.Cho‘lpon) Parcha o‘zbek xalqining Sharq va G‘arb o‘rtasida qolganligini, qadimiy an‘analar va zamonaviylik o‘rtasidagi to‘qnashuvlarni aks ettiradi. 3. Til tafakkurga ta‘siri: Inkor shakllari ham inson tafakkuriga va voqelikni qanday anglashiga ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, “*Uning nutqi oddiy, lekin unda bir dard bor edi. Bu dard shunchalik chuqur ediki, hatto so‘zlarning o‘zi yetarli emasdek tuyulardi.*” (Kecha va kunduz. A.Cho‘lpon) Til orqali his-tuyg‘ularni ifoda etish Cho‘lpon asarida katta o‘rin egallaydi. Bu yerda nutq va so‘zlar insonning ichki kechinmalariga va tafakkuriga bevosita ta‘sir qiladi. 4. Pragmatik aspektlar: Lisoniy manzarada inkor pragmatik vaziyatlarga ham bog‘liq. Insonlar kontekstga qarab rad etish, inkor qilinayotgan narsani yumshatish kabi tuzilmalardan foydalanadilar. Masalan, “*Hamma jim bo‘lib, go‘yo bu so‘zlarning ortida katta bir sir yashiringanday, bir-biriga qarashardi.*” (Kecha va kunduz. A.Cho‘lpon) Pragmatik jihatdan sukunat so‘zi orqali katta iztirob va umidsizlik aks ettiriladi. 5. Lisoniy inkor va falsafiy nuqtai nazar: Quyidagi parchada inson hayoti va uning ma‘nosini inkor etuvchi falsafiy qarashlar mavjud. Masalan. “*Bu dunyo go‘yo bekor qilingan bir o‘yindan boshqa narsa emasdi... Odamlar o‘z hayotlarining ma‘nosizligidan bexabar yashashardi.*” (Kecha va kunduz. A.Cho‘lpon) Bunda inson hayotining bekorchi ekanligini tushuntirish orqali u dunyoning iztiroblarga asoslanganligini ko‘rsatadi. Bu esa lisoniy inkorning falsafiy nuqtai nazari bilan uyg‘unlashadi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli “*Inkor kategoriyasining konseptual semantik maydoni*” deb nomlanib, unda inkorning kontseptual semantik tomoni tahlil

<sup>30</sup> Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: МГУ, 2004. – С. 47,54.

qilinib, turli xil pragmatik va lingvistik elementlarni qamrab oladi. Inkori kategoriyasining konseptual tarkibi: rad etish, haqiqatga ziddlik, yoʻqlik kabi birliklarni oʻz ichiga oladi.

Inkori kategoriyasining konseptual-semantik maydoni turli lingvistik vositalarni oʻz ichiga oladi: 1. Grammatik vositasi – inkori yuklamalari (“emas”, “yoʻq”, “-ma” va boshqalar). Masalan: “Men kelmayman”. 2. Leksik elementlar orqali ifodalash mumkin. Masalan, “mavjud emas”, “hech kim”, “hech narsa” soʻzlari. 3. Pragmatik nuqtai nazardan inkori ifodalanadi, yaʼni kontekstga qarab inkorning semantik yuklamasi oʻzgaradi. Masalan: “Sizning aytganingizga ishonmayman”.

“Longman Language Activator” va “Macmillan English dictionary for advanced learners” va “Merriam-Webster's Collegiate Dictionary” lugʻatlarida inkori birliklar, ularning taxminiy paydo boʻlish vaqti haqidagi maʼlumotlar keltirildi.<sup>31</sup> Inkorni aks ettiruvchi: *no, none, not, nothing, neither, never, nowhere, nobody* soʻzlari olamni anglash va konseptual jihatdan nutqda idrok etish jarayonlarini aks ettiradi.

Grammatik jihatdan inkori vosita odamlarning aqliy va kognitiv faolligini aks ettiruvchi feʼllar bilan oʻzaro birikadi, ular (do smth, have, know, move) shaxsning borligini belgilovchi feʼllardir. Ikkinchi variantga kelsak, *don't care, don't like, don't think so (doubt it ma'nosida)* birikmalar koʻproq fikr predikatlari boʻlib, odamning atrofdagi hodisalar va narsalarga munosabatini ifodalaydi. Bu birikmalar soʻzlashuv nutqida qoʻllanilganda voqeylikni tom maʼnoda rad etmaydi, aksincha, qiymat mulohazasini ifodalashga intiladi.

Ikkilamchi inkori vaqt oʻtishi bilan ikkita qarama-qarshi funksiyani bajaradi: neytrallash (“*uning tashrifi kam emas*”, “*muhim emas*”) va kuchaytirish (*U hech qachon hech narsa demadi, Agar kelolmasam boʻlsa kerak*).

Qadimgi va oʻrta ingliz davrida ham gapda inkorning qoʻsh qoʻllanilishi keng tarqalgan, lekin vaqt oʻtishi bilan u ikkita qarama-qarshi vositalar ham neytrallash (“*Her visits to him are not infrequent*”, “*The matter is not unimportant*”) va mustahkamlash (“*He never said nothing*”, “*I felt I couldn't not come*”) vazifasini bajaradi. Rad etish, birinchi navbatda, kognitiv va fikrlash jarayonlari bilan bogʻliq boʻlib, insonning jamiyat aʼzosi sifatidagi faoliyatini aks ettiruvchi komponent sifatida qaraladi. Xulq-atvor”, “nutq xulq-atvori”, “shaxs” kabi tushunchalar bu bosqichda fanlararo oʻrganiladi. Falsafiy lugʻatlarda inkori maʼlum bir holatni, bogʻlanishni tan olmaslik, rad etish, nazariy nuqtayi nazardan, inkori - mavjud emaslik, yoʻqlik haqidagi fikrdir. Inkori hukmda inkori uning butun mazmuniga yoki predmet va predikat oʻrtasidagi bogʻlanishga qaratiladi va inkori kategoriyasi oʻzbek tilida “emas”, ingliz tilida esa “not” inkori soʻzi orqali ifodalanadi.<sup>32</sup>

B.Rasselning gnoseologik masalalarga bagʻishlangan asarlarida inkori mutlaqo qarama-qarshi nuqtayi nazarni ifodalaydi. “... *the world can be described without the use of the word "not"*”.<sup>33</sup> “The sun is shining” jumlasini sodir boʻladigan haqiqatni

<sup>31</sup> Merriam-Webster's Collegiate Dictionary lugʻatida berilgan sanalar har doim ham soʻzning ingliz tilida birinchi marta paydo boʻlishiga emas, balki tilda eng qadimgi qayd etilgan (yozma yoki bosma) manbalarga ishora qiladi.

<sup>32</sup> Философский словарь: Основан Г. Шмидтом. - 22-е, новое, переработ, изд. под ред. Г. Шишкоффа /Пер с нем./ Общ. ред. В.А. Малинина. – М.: Республика, 2003. – С. 325-326.

<sup>33</sup> Russell B. Human knowledge. Its Scope and Limits. New York, Simon and Schuster, 1948. – P. 500.

tasvirlaydi. Ammo quyosh porlamasa, quyosh porlamaydi degan obyektiv fakt yo‘q, bu haqiqiy jumla bilan tasdiqlanadi, deydi: "The sun is not shining".

Ikkinchi bobning to‘rtinchi fasli "*Inkor nutq xulq-atvor kategoriyasi sifatida*" sifatida nomlanib, unda inkor nutqiy xulq-atvor kategoriyasi sifatida o‘rganilib, tildagi inkor birliklarni tahlil qilishdan tortib, nutqda inkordan foydalanadigan shaxslarning xatti-harakatlarini shaxsiy fikrlarda aks etishiga e‘tibor qaratilgan.

Biz nutqda "inkor" tushunchasini qo‘llashdan oldin ingliz tilining qaysi leksik birliklarda "inkor qilish" funksiyasi borligini aniqlaymiz. "Lingvistik" va "konseptual" dunyo tasvirlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq: tilning semiologik tizimida turli elementlarning mavjudligi, tushuncha va g‘oyalarning mavjudligi yoki yo‘qligiga bildiradi. Inkorni psixologik tomondan ko‘rib chiqib, "nonkonformist" atamasiga e‘tibor qaratamiz. "Merriam-Webster's Collegiate Dictionary" (1993) lug‘atida, bu konsepsiya 17-asr boshlarida paydo bo‘lgan. Ingliz tilida nonkonformist so‘zi cherkovlarga bo‘ysunmaydigan shaxsga ishora qiladi: "a person who does not conform to an established church; esp. - one who does not conform to the Church of England" dan ajralib chiqqan va Angliya cherkovi tomonidan "sektantlar" deb hisoblangan protestantizm izdoshlarini nazarda tutgan. Bu so‘z umum e‘tirof etilgan munosabatlarga rioya qilishdan bosh tortgan odamni anglatishi mumkin: "someone who does not follow ways of living, thinking, or behaving accepted by most people".<sup>34</sup>

Izohli lug‘atlar, tezauruslar va sinonimlar lug‘atlarida<sup>35</sup> inkorni ifodalovchi so‘zlar bir necha turlarga ajratiladi. Manbalarni tizimlashtirish ma‘lum bir sohaning gipotetik tasvirini aniqlashga imkon beradigan *agnostic, dissenter, nihilist, nonconformist, unbeliever, nonbeliever* so‘zlarida semantik jihatdan inkor komponenti mavjud. Ushbu leksik birliklar e‘tiqod va xatti-harakatni umume‘tirof etilgan stereotiplarga mos kelmaydigan, ma‘lum turdagi shaxsni ifodalaydi. *Agnostic, unbeliever* so‘zlari diniy dogmalarni shubha ostiga qo‘yadigan yoki rad etadigan insonni ifodalaydi.

Zamonaviy tilshunoslikda inlokatsion harakatlarda inkor uchta asosiy turga ajratiladi: ta‘qiqlash, rad etish, salbiy javob. Zero, I.M.Romanenko ta‘kidlaganidek, inkor qilish harakati haqida gapirish juda mavhumdir.<sup>36</sup> Bu turdagi inkor asoslangan nutqiy harakatlar ro‘yxati bilan chegaralanmaydi, kuch va bosim bilan ifodalangan "rad etish" yoki aksincha, tortinchoqlik bilan birinchi holatda "norozilik", ikkinchisida - "shubha" deb talqin qilinadi. Adekvat talqinda yetakchi rolni keng ma‘noda prosodiya va kontekst egallaydi.

Inkor o‘zining ijtimoiy mohiyatini aynan ta‘qiqlovchi nutq aktida to‘la namoyon qiladi. Bunda ta‘qiqlar insonning jamiyatdagi xatti-harakatlarini tartibga soladi: "Salbiy deb baholanadigan hamma narsani ta‘qiqlaydi yoki rad etadi".<sup>37</sup>

<sup>34</sup> Longman dictionary of contemporary English. Longman, Harlow, 2000. – P. 962.

<sup>35</sup> Casell's Modern Guide to Synonyms and related words, 1971, Webster's New dictionary of synonyms, 1978, Crabb's English synonyms, 1979, Rodale, J The synonym Finder, 1979, Roget's Thesaurus of English words and phrases, 1986, Longman language activator, 1999, The New Penguin Thesaurus, 2004.

<sup>36</sup> Романенко И.М. Прагматическое значение предложений, содержащих отрицание: Автореф. дисс....канд. филол. наук. – М., 1998. – С. 10.

<sup>37</sup> Человеческий фактор в языке: Коммуникация, модальность, дейксис / Н.Д. Арутюнова, Т.В. Булыгина, А.А. Кибрик и др.; Рос. акад. наук. Ин-т языкознания - М.: Наука, 1992. – С. 15.

Inkor qilishning bu jihatlari ko‘proq shaxsning harakatlari ijtimoiy psixologiya sohasiga taalluqlidir.

Uchinchi **“Ingliz va o‘zbek badiiy diskursida voqelashgan inkor ifoda birliklarining semantik va funksional-stilistik tadqiqi”** nomli bobning birinchi fasli *“Ingliz va o‘zbek tillarida ritorik argumentativ nutqda inkorning semantik va funksional jihatlari”* deb nomlanadi va qiyoslanayotgan tillarda inkorning semantik va funksional jihatlari tahlil qilinadi. Bobning obykti sifatida 20-asr publitsistik va badiiy matnlari olingan. Dialog va monologlarda inkorning turli funksional vazifalari tahlil etiladi. Semantik tomonlari: 1. *Haqiqiy holatni rad etish va yashirish*: Otabekning sevgisi haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ochiq gapirilmaslighi inkorning muhim semantik jihatidir. Otabek o‘zining ahvolini “Marg‘ilon havosi mizojimga to‘g‘ri kelmadi” deb izohlashi, lekin aslida bu muhabbat tufayli yuzaga kelgan ruhiy holat aks ettiriladi. Bu yerda inkor sevgini yashirishga xizmat qiladi. 2. *Zohiran o‘zini rad etish*: Otabekning muhabbatini tan olmay, uni boshqa narsalar bilan bog‘lab izohlashida inkor yordamida muloqotga noaniqlik kiritiladi. Shu orqali Otabekning ichki iztiroblari va ziddiyatlari oshkor qilinadi. Bu semantik inkor orqali Otabek o‘zining asl his-tuyg‘ularini tan olishdan qochadi. Funksional jihatlari: 1. *Ziddiyatni yaratish*: Inkor yordamida nutqda ziddiyatlar yaratiladi va bu personajlar o‘rtasidagi muloqotni murakkablashtiradi. Otabekning sevgi iztiroblarini yashirishga urinishi uning atrofidagilar bilan o‘zaro munosabatlarini yanada murakkablashtiradi. Bu, Husanali bilan Ziyo shohichi o‘rtasidagi suhbatda aniq ko‘rinadi. (Ziyo aka ajablangan edi: — Qanday dardmandlik, Otabek sog‘-ku? — To‘g‘ri aytasiz, — dedi Hasanali, — ammo men ham uning dardiga bir necha kunlab tushunmay yurgan edim. — Xo‘sh, dardi? — Muhabbat.) 2. *Vaqtinchalik kechiktirish va ehtiyotkorlik*: Inkor yordamida personajlar orasidagi qarorlar kechiktiriladi, muayyan masalalar bo‘yicha ehtiyotkorlik kuchaytiriladi. Masalan, Husanali Otabekning tushunsa ham, bu borada birinchi bosqichda ehtiyotkorlik bilan harakat qiladi. U, to‘g‘ridan-to‘g‘ri Otabekdan sevgi haqida so‘ramay, uning holatini kuzatadi va keyinroq Ziyo shohichidan yordam so‘raydi. Bu yerda inkor personajlar o‘rtasidagi vaziyatni to‘liq ochmaslikka va vaqtinchalik noaniqlik yaratishga xizmat qiladi.

A.Linkolnning “Farewell Address at Springfield” asarining birinchi qismi inkor gap bilan boshlanadi: “No one, not in my situation, can appreciate my feeling of sadness at this parting”. Ta’kidlanishicha, ushbu nutqning birinchi qismi uning shaxsiy kechinmalari bilan bog‘liq bo‘lib nutqda, bolaligi va yoshligi o‘tgan ona shahrini tark etish nega bunchalik qiyinligi juda ta’sirli tushuntiradi.

Keyingi nutqda shunday inkor shakldan foydalanish qayd etilgan: *“United, there is little we cannot do in a host of cooperative ventures. Divided, there is little we can do”*. Gap semantik va funksional jihatdan tahlil qilinganda unda birlik va bo‘linish tushunchalari insonlarning umumiy maqsadlar yo‘lida qanday yutuqlarga erishishlari yoki bo‘linish natijasida qanday cheklovlarga duch kelishlari ko‘rsatib beriladi. *Semantik jihati*: 1. “United, there is little we cannot do” — Bu jumlada inkor orqali birlik holatida insonlarning deyarli hamma narsani amalga oshira olishi ko‘rsatilgan. Ya’ni, birlashgan holda ular uchun imkonsiz ishlar juda ozdir. Inkor yordamida ijobiy imkoniyatlar chegarasizligi ifodalanmoqda. 2. “Divided,

there is little we can do" — Bu jumlada esa inkor orqali bo‘linishning salbiy oqibatlari ko‘rsatiladi. Inkor yordamida bo‘linish holatida deyarli hech qanday yutuq yoki muvaffaqiyatga erishib bo‘lmasligi tasvirlanadi. Bu yerda bo‘linishning ma‘nosizligi va imkoniyatlarning yo‘qligi ta’kidlanadi. *Funksional jihati* inkor ikki qarama-qarshi holat o‘rtasidagi farqni kuchaytirish uchun xizmat qiladi: 1. Jamoaviylikning ahamiyatini kuchaytirish. 2. Bo‘linishning zaifligini ta’kidlanadi yani bo‘linishning salbiy oqibatlari aniq ko‘rsatiladi.

Ushbu nutqda, quyidagi bayonotlarda juda keng qo‘llaniladi: “*Let us never negotiate out of fear. But let us never fear to negotiate*” yoki “*Ask not what your country can do for you - ask what you can do for your country*”. Bunda keltirilgan inkor konstruksiyalar matn mazmuniga “singib ketgani”, mazmun-niyatni yetkazish uchun xizmat qilishi aniqlandi.

Nutqdagi "argumentatsiya" atamasi, mantiqiy va matematik isbotlash protsedurasini (tartibini) anglatadi, uning maqsadi tabiiy fan bilimlari doirasida rasmiy haqiqat aniqlanadi.<sup>38</sup> Biroq, L.V.Pravikova mantiqiy dalillar bilan bir qatorda, odamlarning bir-biriga bo‘lgan munosabatini ularning pragmatik, informatsion, axloqiy, estetikasi bilan bog‘liq holda bahslashishning bir shakli deb biladi. Rasmiy mantiqda inkor belgilangan ma’noga ega va salbiy hukmni ifodalaydi. Quyidagi parchaga mantiqiy fikrlash shakllari berilgan:

*Perhaps it would be as well, first of all, to try to make out what one means by the word Christian.... Some people mean no more by it than a person who attempts to live a good life.... but I do not think that bo‘lgan asosiy shakllar ko‘rib chiqiladi. Qahramonning rejasi... that is the proper sense of the word, if only because it would imply that all the people who are not Christians - all the Buddhists, Confucians, Mohammedans, and so on - are not trying to live a good life.*

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “*Inkorning psixologik kategoriya sifatidagi diskursiv xususiyatlari*” deb nomlanadi va unda zamonaviy adabiyotdagi psixologik inkorning diskursiv xususiyatlari, lingvistik va psixologik jihatlari tahlil qilingan.

Modernizm adabiyoti e‘tiqod va ma‘naviy qadriyatlarning yemirilishi bilan kechadigan, tarixiy o‘zgarishlar davri sifatida tavsiflanadi. Konsepsiya doirasida dunyoga ilgari tayanch bo‘lib xizmat qilgan axloq, madaniyat va din bugungi kunda shubha ostiga qo‘yiladi, o‘zining avvalgi ahamiyatini yo‘qotdi. Bunda modernizm adabiyotiga psixologiya, psixoanaliz sohasidagi yutuqlar va modernistik qarashlar sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Romanlarda qahramonlarining ichki holati, ularning fikr va his-tuyg‘ulari ichki nutqda tilning muhim vazifasi fikrni ifodalaydi. Ichki nutq tilshunoslikning emas, balki psixologiyaning kategoriyasidir, shuning uchun tilshunoslikda uni taqdim etish mumkin va fikr g‘oyalari semantik jihatdan leksik birliklar hamda tilning sintaktik vositalari: inversiya, so‘roq va undov tuzilmalari, qisqartirilgan gaplar orqali amalga oshiriladi.<sup>39</sup>

<sup>38</sup> Правикова Л.В. Современная теория дискурса: когнитивно-фреймовый и аргументативный подходы. Монография. – Пятигорск: ПГЛУ, 2004. – С. 169-185.

<sup>39</sup> Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. – М.: Изд-во лит-ры на иностранных языках, 1958. – 458 с.

*But often now the body she wore..., this body with all its capacities, seemed nothing - nothing at all. She had the oddest sense of being herself invisible; unseen; unknown; there being no more marrying, no more having of children now, but only this astonishing and rather solemn progress with the rest of them, up Bond Street, this being Mrs. Dalloway; not even Clarissa; this being Mrs. Richard Dalloway.* (V.Woolf. – P. 8)

Asar qahramoni pessimizmga berilib ketgan, hayotidan norozi (*I would have been... dark like Lady Bexborough... I would have been, like Lady Bexborough, slow and stately; rather large; interested in politics like a man...*); u nafaqat tashqi ko‘rinishidan noroziligini bildiradi, bu esa begonalashuv bilan ta’kidlanadi (my body) > *this body seemed nothing - nothing at all*, balki shaxs sifatida *I would have been very dignified, very sincere* tarzida ifodalanadi.

Shu o‘rinda *nothing* olmoshning takrorlanishi keyingi *at all* bilan birgalikda qo‘shimcha ekspressivlikning paydo qiladi, bu inkor birligining kategoriyaliligini kuchaytirishga yordam beradi.

Bosh qahramonning ichki dunyosini, uning psixologik holatini tasvirlashda inkor vositalar orqali uning hayotidagi hamma narsani takrorlash yoki o‘zgartirish mumkin emas degan qarash (*no more marrying, no more having of children*) yotadi. Uning boshdan kechirgan, bu dunyodagi yo‘qlik hissi inkor prefiksli sifatlar (*invisible; unseen; unknown*) orqali ifodalanadi: *Millicent Bruton, whose lunch parties were said to be extraordinarily amusing, had not asked her. No vulgar jealousy could separate her from Richard. But she feared time itself, and read on Lady Bruton's face, as if it had been a dial cut in impassive stone, the dwindling of life....* (V.Woolf. – Pp. 22-23)

Uchinchi bobning uchinchi fasli “*Polemik nutqda inkorning funksional-stilistik xususiyatlari*” deb nomlanib, faslda publitsistik uslub kontekstiga qaratilgan va polemik nutqdagi inkorning funksional-stilistik xususiyatlari yoritilgan. Publitsistik uslubning vazifasi tinglovchiga ilgari surilgan qoidalarning to‘g‘riligiga ishonirish yoki unga mantiqiy asos bilan emas, balki aytilgan narsaga kerakli munosabatni uyg‘otish uchun qo‘llanadi. V.Vulfning “Mrs. Dalloway” romanidan keltirilgan parcha birinchi shaxsda yozilgan bo‘lib, bu muallifga taqdim etilgan faktlarni subyektiv baholashga yordam beradi. Subyektiv jihatdan kirish va keyingi qismlarda inkor asosan “**Think**” fe’li bilan kelib, u aqliy faoliyat fe’llari turkumiga kirib, birinchi shaxs birlik olmoshi bilan ifodalanadi: *I do not think that that is the proper sense of the word; I do not mean by a Christian any person who tries to live decently; I do not think that you can properly call yourself a Christian; I do not think you have any right to call yourself a Christian; why I do not think that Christ was the best and wisest of men.*

O‘zbek tiliga tarjima qilishda inkor ko‘pincha bosh gapdan ergash gapga o‘tadi, bu gapni yanada ta’sirli qiladi:

*I do not think that it is the proper sense of the word - " Menimcha, bu so‘zning noto‘g‘ri ma’nosidir"; I do not think that you can properly call yourself a Christian - " Menimcha, siz nasroniy deb atalishga haqqingiz yo‘q".*

Muallif tomonidan "It is...that" so‘zini inkor bilan qo‘llanib maxsus sintaktik shaklga ega bo‘lib, bu orqali argument uchun muhim bo‘lgan xulosa qat’iy

ta'kidlanadi. Paragraf oxirida kuchli pozitsiyada joylashgan qisqa inkor jumla (*There is no evidence of design about it*) ko'pchilik uchun umumiy noto'g'ri tushunchalarni ifodalovchi oldingi murakkab jumla fonida muallifning fikrini ta'kidlaydi. Oddiy va murakkab jumalarni almashtirish ritmik jihatdan muvozanat va rang-baranglikni ta'minlaydi, bu esa matnni tushunishni osonlashtiradi. Inkor gapda *really* so'zidan foydalanish orqali uning ifodaliligi yanada ortadi: *I really cannot believe it.*

B.Rasselning keyingi misollarida ham lingvistik inkorning kontrastiv-emfatik funksiyasiga asoslangan antitezaning ishlatilishi keltirilgan bo'lib, unda asosan argument ko'rib chiqiladi va inkor qilinadi: *That text (the Gospels) has caused an unspeakable amount of misery in the world, for all sorts of people have imagined that they have committed the sin against the Holy Ghost, and thought that it would not be forgiven them either in this world or in the world to come.*

Muallif bu o'rinda o'z qarashlarini mantiqiy jihatdan hissiy komponentlarga qaratadi va kontekstda inkor emas, kuchaytirish vositasi bo'lgan "unspeakable" sifatini qo'llaydi.

Uchinchi bobning to'rtinchi fasli "*Polemik badiiy matnlarda inkor va modallik ifodasining funksional xususiyatlari*" deb ataladi hamda unda polemik adabiy matnlarda inkor va modallikni qo'llanilishi o'rganiladi.

Polemikaning maqsadi muhokama qilingan, muallif nazarda tutgan ishonchsizlik sabablarini tushuntirish emas, balki uning ijobiy e'tiqodini tasdiqlashdir. B.Rasselning «Nega men nasroniy emasman» («Why I am not a Christian») asaridan keltirilgan parchalarda muallifning barcha bilimlari nisbiy, mutlaq haqiqatlar mavjud emasligi aniq ifodalangan. Tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, o'rganilayotgan asarda inkorni ifodalovchi *not* so'zi *ought, can, should* kabi modal fe'llar bilan birikkan. Bunda asar sarlavhasida kiritilgan "*Rationalist*" tushunchasi ajralib turadi. Asarda *rational, rationality, reason, irrational, irrationality, rationalist, rationalism* kabi so'zlardan keng foydalaniladi. "Ratsionalist" ingliz tilida *someone who believes that ideas and actions should be based on practical reasons and knowledge, rather than on emotions or religious beliefs* kabi izohlanadi. Zamonaviy leksikografik manbalarda qayd etilgan rationalizm tushunchasi bir nechta ma'nolarga ega: 1. Reliance on reason as the basis for establishment of religious truth; 2a. A theory that reason is in itself a source of knowledge superior to and independent of sense perceptions. 2b. A view that reason and experience rather than the nonrational are the fundamental criteria in the solutions of problems; 3. Functionalism. Taqdim etilgan ta'riflardagi kalit so'z - aql-idrok va his-tuyg'ularga qarshi – "nonrational" noratsional tushunchalardir. Ana shu qarama-qarshilik kontekstida B. Rasselning polemik nutqi rivojlanadi:

*I am, in this age when there are a great many appeals to unreason, an unrepentant Rationalist. I have been a Rationalist ever since I can remember, and I do not propose to cease to be so whatever appeals to unreason may be made.*

Misollarda insonlar orasidagi bahs-munozara kontekstda oksimorik xususiyatga ega bo'lgan *unrepentant Rationalist* birikmasi orqali berilib, bu

*unrepentant* sifati lugʻatda “*showing no regret for something bad one has done*” maʼnosida taʼriflanadi: *an unrepentant murderer, He died unrepentant.*

Romanda *ought* felining bir necha semantik maʼnolari keltirilib *good* va *reasonable* deb taʼriflanadi. *Undeserved* va *unnecessary* sifatlarining lugʻat taʼriflari “*unreasonable*” yoki “*not reasonable*” deb taʼriflanadi va muallif tomonidan tasvirlangan voqealarni shaxsiy va umumeʼtirof etilgan gʻoyalar asosida baholaydi. Yaxshilik, oqilonalik va toʻgʻrilik tushunchalari: *kind, reasonable and right* soʻzlari bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan D.Lichning “An A-Z of English Grammar and usage” (1996) kitobida “*ought to*” modal feʼli kontekstdagi *right-wrong, good-bad* tushunchalarini ifodalash uchun qoʻllaniladi va aniq bir shaxsga ishora qiladi.<sup>40</sup>

Leksik takroning (“bizga kerak emas” (*we ought not to*)) parallel konstruksiyalarda qoʻllanishi keyingi tasdiqlovchi gapni (*we ought merely to say that...*) taʼkidlash va unga eʼtibor qaratish uchun xizmat qiladi, unda modal feʼl (**ought**) va *merely* yordamida muallif fikri ifodalanadi. Kategorik mulohazalardan qochish uchun nima yaxshiroq va toʻgʻriligini B.Rassel sifatlarining (*certain feel pretty certain - have no right to feel certain - are not certain*) kontekstda qoʻllanilishi bilan ifodalaydi va dogmatik hukmlardan qochish kerakligi haqidagi fikrlarni yoqlaydi.

*Ought* feʼli oʻrniga, *should* feʼlining qoʻllanishi, axloqiy burch va maslahatni ifodalab lesikografik manbalarda berilganidek, *ought* feʼli yordamida inkor harakatni tanqid qilish uchun ishlatiladi: *Such things ought not to be allowed.*

## XULOSA

1. Inkor tushunchasini ifodalovchi til hodisalarining tadqiqi lugʻatshunoslik, grammatika va frazeologiya, shuningdek bir qancha yondosh mantiq, falsafa, psixologiya va tilshunoslik kabi fanlar bilan uzviy bogʻliq.

2. Lingvistik jihatdan inkor kategoriyasi turli darajadagi birliklar: leksema va morfemalar orqali ifodalanadi. Inkor orqali tilshunoslikda til hodisalari va kognitiv-diskursiv paradigmani oʻrganishda funksional yondashishning ahamiyati muhimdir.

3. “Inkor kategoriyasini oʻrganish natijasida: 1. Feʼl inkorining lingvistik shakllari; 1. Feʼl inkorining lingvistik shakllari; 2. Inkorni ifodalovchi boshqa soʻz turkumlari; 3. Lisoniy vositalar; Inkor grammatik shakllar bilan bir qatorda stilistik vositalar orqali ham ifodalanishi mumkinligi; 4. Feʼl inkorining boshqa lingvistik darajalar bilan bogʻliqligi; 5. Kontrastiv tahlil natijalari aniqlandi.”

4. Shu kungacha boʻlgan davrda tadqiqotchilar tomonidan inkor vositalarining grammatik va ularni nutqda ifodalanishiga eʼtibor qaratilgan. Tadqiqotimizda inkor vositalarning frazeologik birliklar, ideomalar orqali ham ifodalanishidagi oʻziga xos tomonlar ochib berildi.

5. Semantik jihatdan inkor kategoriyasi soʻz turkumlari, gaplar, frazeologik birliklar orqali ifodalanib shaxs va predmet yoki oʻrin joyning yoʻqligini ifodalash uchun qoʻllanilishi va etimologik jihatdan barcha inkor mazmundagi leksik

<sup>40</sup> Leech, G. An A-Z of English Grammar and Usage. – London: Longman, 1996. – B. 266.

birliklar asosan olmoshlar bilan ko‘proq ishlatilishi uning rivojlanishi tarixida inkor semantik so‘zlarning kognitiv asoslarini ochib beradi. Semantik jihatdan ingliz tilida no, nothing, none, not, nobody, neither, nowhere va never olmoshlari vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishlarga uchrashi natijasida baholovchi ma’no kasb etadi. Bundan tashqari nobody olmoshi boshqa leksik-grammatik sinfga, ya’ni otga aylanishi natijasida stilistik mano kasb etishi bilan tavsiflanadi. Bunda so‘zlarning bir turkumdan boshqa turkumga o‘tishi natijasida ma’noning o‘sishi va o‘zgarishi kuzatiladi.

6. Qadimgi va o‘rta ingliz tili davrida nutqda inkorning ko‘p miqdorda qo‘llanishi me’yor hisoblangan, lekin ingliz tilning rivojlanishi natijasida bir gap tarkibida qo‘llaniluvchi ko‘p inkordan foydalanish til oshiqchaligi hisoblana boshlandi va ingliz tilida 15-16-asrlardan boshlab birlamchi inkor qo‘llash tartibiga o‘tildi.

7. Inkor uslubiy stilistik jihatdan litota va kinoya stilistik vositalarini ifoda etishi mumkin. Inglizlar nutq odob-ahloqida litotaning qo‘llanilishi ingliz milliy характери bilan tushuntiriladi. Britaniyaliklar o‘z nutqiga ko‘proq nafislik berishga bo‘lgan istagi natijasida kinoyadan unumli ko‘p foydalanadi.

8. Tilshunoslikda konseptual sohani o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, badiiy diskursda inkor tushunchasini ifodalovchi inkor affiksi dinamik kategoriya bo‘lib, yangi so‘z hosil qilishda samaradorligi bilan nutqda yorqin namoyon bo‘ldi.

9. Strukturaviy va kognitiv jihatdan inkor qilish orqali murakkab va tez-tez uchraydigan, yani tasdiqlash yoki inkor etish oppozitsiyasini ko‘rsatuvchi belgilar bilan ifodalanganda urg‘u va ohang o‘rtasidagi qarama-qarshilik o‘rganildi.

Bunda biror bir voqelikka e’tiroz qilish ijtimoiylashtirilgan tushunchadir, chunki u shaxsning jamiyatdagi vazifasi va faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Inkorni ifodalovchi vositalarining ikki tomonlama tabiati tadqiqotning ushbu bosqichida ham namoyon bo‘ladi: nutqiy rad etish, shubha, kelishmovchilik, norozilik tushunchalari inkorga asoslanadi va insonning ichki munosabatlariga tashqaridan ta’qiq va bosim odatda zid ravishda yuz beradi.

10. Inkor kategoriyasi nutqimizda pragmatik, informatsion, ahloqiy, estetik va boshqa munosabatlar bilan bog‘liq. Inkor tushunchasini ifodalashda inkor vositalardan foydalanish psixologik jihatdan muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, modernizm davri badiiy adabiyot namunalarida e’tiqod va ma’naviy qadriyatlardagi o‘zgarishlar yaqqol namoyon bo‘lganligi va ilgari tayanch bo‘lib hizmat qilgan ahloq, madaniyat va diniy qarashlarga nisbatan tushunchalarning o‘zgarishiga, modernistik qarashlarni shakllanishi bilan zamonaviy insonning ichki dunyosida ifodalanishi aks etadi.

11. Badiiy asarda qahramonlarning ichki holati, ularning fikr va his-tuyg‘ulari, har bir personajning ichki nutqida o‘ziga-o‘zi murojaat qilishi orqali voqelikka nisbatan inkor qilishi tilning muhim vazifasi sifatida fikrni ifodalaydi.

12. Lingvistik jihatdan inkor vositalarining matn to‘qimasida qo‘llanilishi kognitiv jarayonning o‘ziga xos belgisi bo‘lib xizmat qiladi va personajning fikrlash jarayonini ko‘rishga yordam beradi.

13. Inkor kategoriyasi va modallik tushunchalari polemik asarlarda ought, can, should kabi modal fe’llarga not (n’t) inkor yuklamasini qo‘shish orqali

ifodalanib, muallif insonlar orasidagi bahs-munozarali vaziyatlarda qahramonlarning o'z qarashlarini turli leksik va grammatik vositalar bilan ifodalaganligiga e'tibor qaratadi. Bundandan tashqari polemik asarlarda unreason va an unrepentant Rationalist so'zlaridagi un- inkor prefiksining takrorlanishi kontekstda unrepentant Rationalist iborasining oksimorik xususiyatga egaligini ko'rsatadi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES  
PhD.03.05.05.2023.Fil.163.01 AT NAMANGAN STATE INSTITUTE  
OF FOREIGN LANGUAGES NAMED AFTER IS'KHOQKHON IBRAT**

---

**NAMANGAN STATE UNIVERSITY**

**TOSHXONOV LOCHINBEK TURSUNBOYEVICH**

**COGNITIVE-LINGUISTIC STUDY OF THE IMPLEMENTATION OF  
THE CATEGORY OF NEGATION IN LITERARY DISCOURSE (BASED  
ON THE MATERIALS OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES)**

**10.00.06 – Comparative literary criticism, contrastive linguistics  
and translation studies**

**ABSTRACT**  
**of dissertation of the doctor of philosophy (PhD) on PHILOLOGICAL SCIENCES**

**The theme of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) was registered at the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2024.4.PhD/Fil1168.**

The dissertation has been prepared at Namangan State University

The dissertation abstract in three languages (Uzbek, English and Russian (Resume)) has been uploaded on the website (www.namsifl.uz) of Scientific Council and on the website of "Ziyonet" information-educational portal (www.ziyonet.uz).

**Scientific advisor:**

**Qo'ldoshev Akram Mahmudovich**  
Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor

**Official opponents:**

**Abduvaliyev Muhammadjon Arabovich**  
Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor

**Ergashev Muhammadjon Rahmonovich**  
Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD), Docent

**Leading organization:**

**Tashkent State Pedagogical University named after Nizami**

The defense of the dissertation will take place on “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025, at \_\_\_\_\_ at the meeting of the Scientific Council for awarding of Scientific Degrees PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 at Namangan State Institute of Foreign Languages named after Is'khoqkhon Ibrat. (Address: 28, Saodat str, Turakurgan city, Namangan region. Phone: +998 (69) 442-11-67; e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz / namdhti@edu.uz).

The dissertation can be reviewed at the Information Resource Center of Namangan State Institute of Foreign Languages named after Is'khoqkhon Ibrat (registration № \_\_\_\_\_). Address: 28, Saodat str, Turakurgan city, Namangan region. Phone: +998 (69) 442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz / namdhti@edu.uz).

The abstract of the dissertation was distributed on “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025.  
(Protocol at the register № \_\_\_\_\_ on “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025).

**N.T.Dosbaeva**

Chairman of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor

**I.I.Umrzakov**

Scientific secretary of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological sciences, Docent

**S.A.Misirov**

Chairman of the Scientific Seminar at the Scientific Council awarding scientific degrees, candidate of pedagogical sciences, Docent

## **INTRODUCTION (abstract of the dissertation of the doctor of Philosophy (PhD))**

**The relevance and necessity of the dissertation topic.** In world linguistics, analyzing how language units are formed and used through cognitive processes in human thinking is one of the pressing tasks. There are various ways of expressing the category of negation in world languages, and each language, based on the rules of its grammatical structure, has developed a specific system of expressive means. While Indo-European languages predominantly express negation through lexical and syntactic means, Turkic languages tend to prioritize morphological methods. Additionally, this category can also be conveyed through affirmative in form but negative in meaning sentences, or through statements carrying a negational meaning.

From a linguistic point of view, considering the significant stylistic potential of negation, it should be noted that its expressive features have not yet been fully explored and remain a central topic of interest in the field of linguistic stylistics. This underscores the necessity and relevance of studying the linguo-cognitive aspects of how the category of negation is realized in linguistics. In global linguistics, the category of negation has been effectively studied across various disciplines such as logic, philosophy, psychology, and linguistics. Works dedicated to the diverse aspects of negation frequently highlight the interrelation between linguistic negation and its conceptual foundations, which are characteristic of human cognition. When defining the category of negation, scholars have taken both logical and psychological perspectives into account. Recently, the idea has been proposed that the category of negation in language, in terms of its essential nature and range of meanings, is broader and more detailed than logical negation. As a result, there arises a need to identify the grammatical semantic essence of linguistic negation in order to distinguish it from logical and psychological negation.

In our country, tasks such as "fully mobilizing scientific, intellectual, and financial resources to broadly utilize scientific and innovative potential, and determining priority directions for continuous reform in science" are being systematically addressed.<sup>1</sup> These objectives call for the study of the metasemiotic features of the category of negation in English and Uzbek from a functional approach and a cognitive-discursive paradigm. Indeed, it is essential to investigate not only the phonetic, lexical, and grammatical features of languages but also phenomena that reflect national-mental characteristics shaped by the culture, spirituality, customs, traditions, and values of a people—particularly the category of negation from a linguo-cognitive perspective.

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 17, 2017, No. PQ-2789 on Measures to Further Improve the Activities of the Academy of Sciences, Organization, Management, and Financing of Scientific Research; Decree dated April 20, 2017, No. PQ-2909 on Further Development of the Higher

---

<sup>1</sup> Decree of the President of the Republic of Uzbekistan № PF-6097 dated October 29, 2020, "On the Approval of the Concept for the Development of Science until 2030".// <https://lex.uz/ru/docs/5073449> (Accessed: 15 January 2021).

Education System; Decree dated October 4, 2019, No. PQ-4479 on the Celebration of the Thirtieth Anniversary of the Adoption of the Law on the State Language of the Republic of Uzbekistan; Decree dated October 8, 2019, No. PF-5847 on the Approval of the Concept for the Development of Higher Education in Uzbekistan until 2030; Decree dated October 20, 2020, No. PF-6084 on Measures to Further Develop the Uzbek Language and Improve Language Policy in Our Country; Decree dated November 6, 2020, No. PF-6108 on Measures for the Development of Education, Training, and Science in Uzbekistan's New Development Era; Decree dated May 19, 2021, No. PQ-5117 on Measures to Elevate the Learning of Foreign Languages in the Republic of Uzbekistan to a New Quality Stage; and Decree dated January 28, 2022, No. PF-60 on the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026. The mechanisms for implementing the tasks outlined in these decrees and other relevant legal and regulatory documents will be significantly supported by this dissertation.

### **Relevance of the research on the advancing branches of the development of science and technology of the Republic.**

The dissertation has been carried out in accordance with the priority direction of forming a system of innovative ideas and their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual, and educational development of an information society and a democratic state.

**Level of study of the problem.** There are several methods to study the expression of the category of negation in artistic discourse. The expression of the category of negation depends on the purpose and subject of artistic discourse. To understand this category, analyses and studies are conducted on artistic works, poems, stories, and other artistic methods. Through these methods, the expression of the category of negation and its distinctive characteristics are identified.

